



## BAHORIYA QASIDALAR

**Muallif:** M.J. Xasanova<sup>1</sup>

**Affiliyatsiya:** Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti, mumtoz adabiyot tarixi kafedrasida dotsenti, PhD<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.20195656>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada sharq mumtoz adabiyotining eng murakkab va salmoqli janrlaridan biri bo‘lgan qasidaning o‘ziga xos turi — bahoriyalar tadqiq etiladi. Tadqiqotda bahoriya qasidalarining tarkibiy qismlari, xususan, tabiat uyg‘onishini badiiy bo‘yoqlarda chizib beruvchi *tashbib* qismining g‘oyaviy-estetik vazifalari yoritilgan. Maqolada qasidago‘y ijodkorlar merosidagi bahoriyalar misolida tabiat hodisalarining hukmdor shaxsi va uning odilligi bilan mahoratli bog‘lanishi (husni ta‘lil) tahlil qilingan. Shuningdek, janr rivojida saroy adabiy muhiti va hukmdorlar homiyligining o‘rni ilmiy asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** qasida, bahoriya, tashbib, madh, mumtoz she‘riyat, tabiat tasviri, badiiy san‘at, saroy adabiyoti, g‘oyaviy uyg‘unlik.

Bahor mavzusi adabiyot singari qadimdir. Sharq adabiyotida bahor fasli, uning tasviriga alohida ahamiyat berishgan. Bu faslda qishning sovuqliklaridan, izg‘irinlaridan omon chiqqan xalqning xursandchiligi, orzu-umidlari, kelajakka ishonchi, boringki, hayot o‘z ifodasini topgan. Shuning uchun ham bahor tasviri ko‘pchilik qasidalarining nasib qismida tilga olingan mavzulardan sanaladi. Bahor tasviri bilan boshlangan qasidalar bahoriya qasidalar deb yuritiladi. O‘zbek adabiyotida yaratilgan Sakkokiyning uchta, Rojij Xorazmiyning bitta, Munisning bitta, Ogahiyning o‘nta, Bayoniyning bitta qasidasi nasibi bahoriyadir. Bunday qasidalarda Bahor, Navro‘z, Quyosh, Suv, Bulut, Lola, Ar-ar, Hut, Hamal, Gul, G‘uncha, Bulbul, Qumri, Sarv, Savsan, Nargis, Sabo, Shamol, Chinor, Mezon, Chaman, Xiyobon, Guliston kabi timsollar tez-tez ko‘zga tashlanadi.

Sakkokiy qasidasi bahor mavsumi kelib, jonlantirish san‘ati vositasida, jahonni shod-u xurram qilgani, gul shoxiga chamanda taxt-u haram yasagani tasviri bilan boshlanadi:

Rabe' keldiyu qildi jahonni shodu xurram,  
Chu gul shohig'a yasodi chamanda taxt-u haram [4: 2].

Keyingi baytda yengil shamolning holi Iso a.s. nafasiga o‘xshatilib, u og‘zini ochsa o‘likni tiriltiradi, u hol tili bilan chamanga shodlik kelib, g‘am, xafalik ketganini aytadi. Chaman ahli – gullarning qizil-u yashilga burkanib yasanishini yasanib to‘y yoki bayramga ketayotgan qizlarga o‘xshatib, chamanda to‘y yo bayram bormikan, deydi shoir. Bulbul tarona boshlagan edi, gul sarxush bo‘lib o‘tirdi, kimdir pastda,

kimdir balandda joylashib o'tirdi, bulbulning taronasiga gul kulardi (chunki u ochilgan), g'uncha esa tabassum qiladi-yu, o'zini tutadi (ochilmaydi):

Eshitsa bulbul o'tin, gul kular, vale g'uncha  
Tabassum etoru oxir o'zin tutar mahkam.

Bulbul o'z ovozi bilan ming sirni fosh etadi, bu gulga xilvat uyida nima uchun mahram bo'ladi. Gul oldida ozod savsan tilini uzun qildi, garchi soqov-u gung bo'lsa ham. Ushbu o'rinda shoir gung so'zining ikki ma'nodoshidan – alkin va abkamdan foydalangan. Nargisning ko'zini suzib, karashma-yu noz qilganiga olam shaydo bo'lishi, go'yo chamanga gulday yangi kelin tushib, erta tong uning ustiga shabnamlardan inju sochishi, binafsha esa gulistonga yomon kishining ko'zi tegmasin deb ko'p g'am yeyishi bayon etiladi:

Uzotti tilni gul ollinda savsani ozod,  
Agarchi bandi bikin erur alkinu abkam.  
...Yamon kishi ko'zi yetgay teyu gulistong'a,  
Binafsha til chekar o'llig'avu yer ko'b g'am.

Husni ta'lil vositasida sabo biror muxolifdan xabar keltirgani uchun chamanzorda sabza cherik to'plab, lola bayroq yoygani haqida yoziladi. Qiyaliklarda esa bulut nog'ora urib, lashkar to'pladi, saharga borib bo'ron tindi, shon-shavkat ahli yasaldi:

Yoxud xabarmu kelturdi sabo muxolifdin,  
Yasodi sabza cherigiyu lola tikti alam.  
Qiyolar uzra bulut urdi ko'su yig'di sipoh,  
Saharda qo'ydi chobqun, yasodi xaylu hasham.

Qo'lga zupini olib chaqmoq o'zini bog'ga urdi, qaytariq ovozi bu tog' ichida uni kar qildi. Zamona markabi birikmasidan murod kun va tundur. U otlarning otlari ashhab-oq ot, adham-qora otdir. Shunda xuddi Afrosiyob urushida Rustamdek sarv zirhli kiyimini egniga solib maydonga kirib keldi, chinor kaftini ochib Tangri uni arabu ajam orasida omonda tutishini aytib duo qiladi:

Ilig'a zupin olib barq bog'ga urdi o'zin,  
Sadoyi ra'd uni qildi bu ko'h ichinda asam.  
Zamona markabi erdi yer ablaqi ayyom,  
Ul ikki oti otini ush ashhabu adham.  
Zireh eginga solib sarv kirdi maydonga  
Netongkim, Afrosiyob urushinda ul Rustam.  
Chinor kafini ko'torib ayur bu holda «O'g'on  
Amonda tutsun onikim avkor arabu ajam» [4:22].

Munis qasidalari ichida bitta qasidaning nasibi bahoriya bo'lib, davomi na'tdir. Qasida quyidagi misralar bilan boshlanadi:

Mujdaki, ohuyi mehr hutdin aylab گزار,

Qildi hamal dashtining gulshani sabzin maqar [1: 124b].

Ya'ni mehr ohusi – quyosh hutdan o'tib, hamal dashtining yashil gulshanini maskan qildi. Xuddi shunday tasvir Ahmad Tabibiyning bir qasidasida ham uchraydi. Unda Xovar shohi – quyosh hut dashtidan o'tib, jadal yurib hamal gulzorini makon qilgani tasvirini ko'ramiz:

Shukrulillahkim, bo'lub Haq lutfi elga mehribon,  
To'ldi yaksar behjat-u fayz-u safo birla jahon.  
Ya'ni shohi xovar aylab Hut dashtidin guzar,  
Ko'rguzub sur'at hamal gulzorini qildi makon [2: 176]

Ogahiyning bir nechta qasidasida ham shunday tasvirga duch kelamiz. "Ta'viz ul-oshiqin"dagi birinchi qasidada quyoshning zarrin kiyigi hut dashtidan hurkib ketib, hamalning yashnagan bo'stoni ichida bezanib jilvalanayotgani tasviri keltirilsa:

Quyosh zarrin g'izoli ko'rguzub ram hut dashtidin,  
Hamal sarsabz bo'stoni ichida jilvaperodur [3: 556],

yana bir qasidasida yulduzlar shohi-quyosh hut dashtidan o'tib, hamal bo'stonini maskan etishni qaror qilgani bayon etiladi:

Bo'lub anjum shahi chun hut dashtidin qadampaymo,  
Azimat qildi aylarga hamal bo'stonini ma'vo [3: 556].

Yoki yana bir qasidasida yulduzlar podshosi-quyosh o'zining chiroyli yuruvchi otiga minib, hut dashtidan chiqib, hamal gulzoriga kiradi:

Xusravanjum minib yakron xushraftorig'a,  
Hut dashtidin chiqib kirdi hamal gulzorig'a [3: 602]

Ogahiyning Sayyid Muhammadxonga bag'ishlangan bir qasidasining nasibida ham shunday tasvir bor. Unda quyosh kiyigi hut manzilidan o'tib, yuz jilva bilan hamal bog'lariga qadam qo'ygani tasviri uchraydi:

O'tub g'izolayi xurshid hut manzilidin,  
Hamal riyozig'a yuz jivva birla qo'ydi qadam [3: 583].

Yana bir qasidasi nasibida shahi anjum-quyosh hut tog'idan oshib, hamal maydonida dabdaba bilan o'z bayrog'ini o'rnatgani bayon etiladi:

Ayon aylab shahi anjum hitori hutdin nahzat,  
Tajammul birla nasb etti hamal maydonida royat [3: 592].

Muhammad Yusuf Bayoniyning bir qasidasi nasibi ham shu mavzu bilan boshlanadi. Unda Xovar sultoni – quyosh hamal taxti ustida qaror topgani bayon etiladi: Sultoni xovar, chun hamal taxti uro topti qaror,

Elga karam oyinidin lutfini qildi oshkor [6: 53].

Nega barcha qasidalarda hut dasht, hamal esa gulzor, bo'ston, gulshan, riyoz atamalari bilan sifatlanmoqda. Chunki hut qishning so'nggi oyi sanaladi. Uni har qancha yomonlasa, har qanday kishiga ma'qul bo'lmaydigan sifatlar bilan tilga olsa bo'ladi. Hamal esa bahorni boshlab keladi. Shuning uchun ham hamal yangilanishning boshlanishi sifatida maqtashga arziydi. Munisning yuqoridagi qasidasida bahorning yana bir xususiyati tilga olinadi. U kunning tun bilan teng bo'lishi, undan keyin kun uzayib, tun qisqarib borishi holatidir. Qasidada shoir mumtoz atamalardan foydalangan holda kunduz mustazodning misrasiday darajalar bilan ortib, tun g'azali vaznidan kam-kam olinib qisqarishini bayon etadi:

Kunduz o'lub mustazod misrayi tadrij ila,  
Tun g'azali vaznidin kam-kam o'lub muxtasar [1: 124].

Ogahiyning bir qasidasida ham shunday tasvir bor bo'lib, unda Navro'z sultoni adolat mezonini tuzatgani, bu tun va kunning vaznida barobarlik oshkor bo'lgani bilan baholanishini bayon etadi:

Kelib Navro'z sultoni tuzotdi adl mezonin,  
Tun-u kun vaznida ondin barobarliq huvaydodur [3: 556]

Yana bir qasidasida kunning bahri yuzi uzayib, kecha g'azali vazni esa kam-kamdan qisqardi deyilsa:

Uzoldi bahri-yu kun beti mustanir o'ldi,  
Bo'lub kecha g'azali vazni muxtasar kam-kam [3:583].

Yana birida quyosh adolat tarozisini rost qilib, kecha-yu kunduzni teng qilgani bayon etiladi:

Rost tuzub adl tarozusini,  
Vazn aro teng ayladi layl-u nahor [3:607].

Yana bir qasidasida nur sipohining kun-kundan uzayib g'olib bo'lgani, zulmat lashkari esa darajama-daraja ojiz va kam bo'lgani haqida yoziladi:

Sipohi nur kun-kundin fuzun o'ldi g'olib ham,  
Bo'lub tadrij birla ojiz-u kam lashkari zulmat [3:592].

Munis qasidasi nasibiga qaytamiz. Unda tasvirlanishicha, bahor bulutlari ehson etagidan nima bo'lsa sochib, butun ho'l-u quruqni latif hadyalari bilan to'ldirdi. Ba'zi yomg'irlar daryo ustiga qo'ngan edi, nutfadek sadaf parvarishidan gavharga aylandi. U shunday aql ko'zining gavhari bo'lgan gavharki, sultonlar toji uning nisbatidan zeblandi, yondi. Har nechta tomchi quruqlik ustiga tushdiki, undan dona ko'kardi, daraxt yam-yashil bo'ldi. Bahor nasimi subh-tong kabi cho'ntagini ochganda, g'uncha nihon sirining ochuvchisi bo'ldi. Gullar otashin chehra bilan oshufta bulbulni yanada oshufta qildi. Sunbul-u rayhon hidi chamanning dimog'ini ochganidan hijolat

tortgan nofa (kiyikning kindigi) xushbo'y mushkka aylandi. Go'zallarning lablari ustidagi xol va xat (mo'y)day bo'lib chashmalar atrofida nilufar va sabzalar o'sdi. Tog'-u dashtlarda shunday chaman paydo bo'ldiki, yer yuzi jannat bog'laridek bo'ldi. Sarv ustida qumri bo'yniga shodlik arqonini solib, gul ustida bulbul chah-chah chekardi. Oy yuzlilar gulshan go'shasida bazm tuzganda zar jomda may quyoshday yurib davra oladi. Husn tomoshosidan oshiqalar ko'zlari fayz topib, mast bo'lib, visol bilan shodlikka yetdi. Ishqdan telba bo'lgan ko'ngillar junun zanjiridan ozod bo'lib, olamga xursandchilik taratdilar. Hamma Navro'z jomidan aysh bodasini ichib, shodlik zavqi nash'asini yanada orttirdi.

Ogahiyning yigirma ikki qasidasidan o'ntasi bahoriya nasibli qasidadir. Xususan, "Ta'viz ul-oshiqin" devonidagi birinchi qasidada jonlantirish vositasida bulutni mashshota deb, undan to'kilayotgan yomg'ir tomchilarini gavharga o'xshatib, uning ishini go'zal rayhonlarga zeb-u oro berish uchun gavhar sochishdir deb ta'riflaydi. Gulning yuziga sunbul yetgani, unga chirmashgani chiroylilar yuzlariga tushgan sochlari ularni bezaganiga o'xshatiladi. Gulshan ichidagi gullarga qaragan nargis tomoshalarni ko'rib ko'zini ochib yumolmay qolgan. Har yerda lola rangin piyolani qo'lga olib bu mavsumda shodlik mayidan ichish kerakligini elga imo qilmoqda. Bahor kelishi bilan olam yuzi jannatga o'xshab, xalq esa Jannat ahlidek g'am-anduhdan ozod bo'lgan :

Bukim rangin piyola qo'lg'a olmish lola har sori,  
Bu mavsimda tarab jomin icharga elga imodur...

Ma'alqissa bo'lub olam yuzi xuldi barin yanglig',  
Xaloyiq jannat ahlidek kuduratdin mubarrodur. [3:557]

Ogahiyning yana bir qasidasi nasibida xuddi shunga o'xshash tasvir uchraydi:

Ko'tarmish lolalar ilkiga rangin jom har sori,  
Ishoratdur mungakim qo'yma qo'ldin kosayi ishrat [3:593].

Rojiy Xorazmiyning bahoriya qasidasi Alloh Taolodan turfa lutflar baxsh etilib, olam bir guliston gulshaniga o'xshaganini bayon etish bilan boshlanadi. Quyoshning hut burjidan hamal burji tomon xirom qilgan bu mavsum aqlli kishi uchun g'animat, g'aflat bilan o'tkazganlarga armon ekanini ta'kidlaydi shoir:

Oqil ulkim ushbu mavsumni g'animat anglag'ay,  
G'aflat ila kimki favt aylar, onga armon erur [7: 143].

Qasidada toza ofoq-olamda turfa rang, turfa turish, o'zgacha unvonli sharqqa xos bo'lgan Navro'z sayli tilga olinadi. Bu vaqtda dam-badam aprel buluti maydalab yomg'ir yog'diradi, yer yuzidagi quruq maydon ustidagi g'ubor ta'siridan uryon bo'ladi. Olamdagi har bog' Jannat ko'rinishli bo'lib, sarv va gul hur va g'ilmonga, har bir yengil shamol Iso nafasiday tanga ruh baxsh etadiganday, har bir ariq go'yoki hayot chashmasiga o'xshaydi. Qumri va bulbul sarv va gul vaslida shod bo'lib, yuz navo bilan soz tarannum qiladi:

Qumri-yu bulbul o'lub sarv ila gul vaslida shod,  
Yuz navo birla tarannum sozi xushilhon erur [7: 143].

Xullas, bahor fasli, Navro'z bayrami sharq xalqlari hayoti va ijodiyotining ajralmas qismi o'laroq mumtoz qasidalarda ham o'z aksini topgan. Ularda bahor bilan bog'liq kosmogonik o'zgarishlar, sayyoralar va burjlarning holatlari, yangilanish, yasharish, hayotga ishonch ifoda etiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Munis devoni. Qo'lyozma. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. 12566 inven. 121b-172a
2. Ahmad Tabibiy. Tanlangan asarlar [Matn]: to'plam. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 194 b.
3. Ogahiy. Ta'viz ul-oshiqin. Turkiy adabiyot durdonalari seriyasi, 9-jild. – T.: O'zbekiston, 2022. -716 b.
4. Mavlono sakkokiy devoni. T.: "Mumtoz so'z", 2017. - 144 b.
5. Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. -T.: "Yangi asr avlodi", 2010. - 520 b
6. Muhammad Yusuf Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. So'z boshi: N.Jumaxo'ja, I.Adizovaniki. — T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashr., 1994. -104 b.
7. Muhammad Yusuf Rojij Xorazmiy. Jamoling gulshanining bulbuliman. Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008. - 177 b.